O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 267-moddasiga muvofiq har qanday mol-mulk, shu jumladan, ashyolar va mulkiy huquqlar (talablar) garov narsasi bo'lishi mumkin, muomaladan chiqarilgan mol-mulk, kreditorning shaxsi bilan uzviy bog'liq bo'lgan talabnomalar, xususan hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablar, alimentlar to'g'risidagi talablar hamda boshqa shaxsga berilishi qonun bilan man etilgan boshqa talablar bundan mustasno [1].

Bunda fuqarolarning undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan ayrim turdagi mol-mulkini garovga qo'yish qonunchilik bilan man etilishi yoki cheklanishi mumkin.

Intellectual mulk obyektlariga bo'lgan mulkiy huquqlar ham garov narsasi deb topilishi mumkin. Ushbu huquqlarni garovga qo'yish man etilmagan yoki boshqa tarzda cheklanmagan.

FK 279-moddasida undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish asoslari belgilangan bo'lib, garovga oluvchining (kreditorning) talablarini qondirish uchun undiruvni qarzdor garov bilan ta'minlangan majburiyatni o'zi javobgar bo'lgan vaziyatlarda bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish mumkin.

Agar garov bilan ta'minlangan majburiyatning qarzdor tomonidan buzilishi juda arziyas bo'lsa va shu tufayli garovga oluvchining talablarining miqdori garovga qo'yilgan mol-mulkning qiymatiga mutlaqo mos kelmasa, undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratishni rad etish mumkin, qonunda belgilangan hollar bundan mustasno.

Shuningdek, FK 280-moddasida undiruvni garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratish tartibi haqida so'z boradi.

Garovga oluvchining (kreditorning) talablari garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk qiymatidan sudning qaroriga muvofiq qondiriladi.

Garovga oluvchining talabini garovga qo'yilgan ko'chmas mol-mulk hisobidan sudga murojaat qilmasdan qondirishga, agar bu garov to'g'risidagi shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa yoxud undiruvni garov narsasiga qaratish uchun asoslar vujudga kelganidan keyin garovga oluvchining garovga qo'yuvchi bilan tuzilgan, notarial tartibda tasdiqlangan kelishuvi asosida yo'l qo'yiladi. Mazkur kelishuv tufayli huquqlari buzilgan shaxsning da'vosiga ko'ra bunday kelishuv sud tomonidan haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

Agar garovga qo'yuvchining garovga oluvchi bilan kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, garovga oluvchining talablari garovga qo'yilgan ko'char mol-mulk hisobidan sud hujjatiga muvofiq qondiriladi. Agar qonunda boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, undiruv garovga oluvchiga topshirilgan garov narsasiga garov to'g'risidagi shartnomada belgilangan tartibda qaratilishi mumkin.

Undiruv garov narsasiga quyidagi hollarda faqat sudning qaroriga muvofiq qaratilishi mumkin:

1) qonunda boshqa shaxsning yoki organning garov to'g'risida shartnoma tuzish uchun roziligi yoxud ruxsati haqidagi talab belgilangan bo'lsa;

2) garov narsasi tarixiy, ilmiy, badiiy qimmatga yoki o'zga madaniy qimmatga ega mol-mulk bo'lsa;

3) garovga qo'yuvchi yo'qolgan bo'lsa va uning turgan joyini aniqlash mumkin bo'lmasa.

Ushbu moddalar mazmunidan ma'lum bo'ladiki, undiruvni garov narsasiga qaratish tartibini belgilashda qonun chiqaruvchi asosan moddiy obyektlarga – ko'char va ko'chmas mulklarga e'tibor qaratgan. Mulkiy huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarga nisbatan undiruvni qaratish masalasi deyarli bayon qilinmagan.

O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni 30-moddasida mulkiy huquqlar garovida garov narsasini realizatsiya qilish garovga qo'yuvchining garovga qo'yilgan huquqdan kelib chiquvchi talabdan garovga oluvchi foydasiga voz kechishi orqali amalga oshirilishi ko'rsatib o'tilgan.

Garovga oluvchi undiruvni garov narsasiga qaratish huquqi vujudga kelgan paytda garovga qo'yilgan huquq sud tartibida o'ziga o'tkazilishini talab qilish huquqiga ega bo'ladi [2].

Mazkur norma ham juda umumiy bo'lib, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarga undiruvni qaratish tartibini to'la ochib bermaydi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" 258-II-son Qonunining 48<sup>4</sup>-moddasiga muvofiq ijro hujjatlari bo'yicha undiruv qarzdorga tegishli mulkiy huquqlarga, xususan, quyidagi huquqlarga qaratilishi mumkin:

ko'chmas mulkni uzoq muddatli ijaraga olish huquqi;

yer uchastkasiga bo'lgan huquq;

intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquq;

qarzdorga litsenziat sifatida oddiy nomutlaq litsenziya asosida tegishli bo'lgan intellektual faoliyat natijalaridan va shaxsiylashtirish vositalaridan foydalanish huquqi [3].

Qarzdorga tegishli bo'lgan boshqa shaxslarga nisbatan mulkiy huquqlarga undiruv O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan qoidalarga rioya etgan holda qaratiladi.

Shu o'rinda qonunchilikka muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan intellektual faoliyat natijalari va individuallashtirish vositalariga bo'lgan mutlaq huquqlar bundan mustasno ekanligini ta'kidlab o'tish joiz. Bu haqida quyiroqda so'z yuritiladi.

Ushbu Qonunning 56-moddasi 3-qismiga muvofiq intellektual faoliyat natijalariga va xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarga bo'lgan mulkiy huquqlarni realizatsiya qilish qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli operator tomonidan elektron onlayn-auksionlarda amalga oshiriladi.

Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-yanvardagi 18-son qarori bilan tasdiqlangan "E-auksion" elektron savdo platformasida elektron onlayn-auksion va tanlovlarni tashkil etish hamda o'tkazish tartibi to'g'risida" Nizomning 31-bandiga muvofiq tasdiqlangan lot qiymati belgilangan tartibda to'langandan so'ng keyingi ish kunidan kechiktirmay bayonnoma rasmiylashtiriladi, savdo platformasida lot qiymati to'liq to'lanishi talab etilmaydigan auksion obyektlari bundan mustasno.

Bunda Nizomning 46-bandiga ko'ra mazkur bayonnoma oldi-sotdi shartnomasi kuchiga ega bo'lib, mulk va mulkiy huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun hamda oldi-sotdi (ijara) shartnomasi tuzish uchun asos hisoblanadi. Bir qarashda qaysidir ma'noda, garchi juda umumiy bo'lsada, undiruvni intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarga qaratish normativ-huquqiy jihatdan tartibga solingan bo'lib ko'rinadi.

**Muhokama.** Real hayotda esa professor O.Okyulov ta'kidlaganidek, intellektual mulk sohibi qarzdor bo'lib, uning mol-mulklariga nisbatan ijro qaratilganda, Majburiy ijro byurosi

(MIB) xodimlari birinchi galda tijorat banklarida uning qancha mablag'lari borligi, kadastr organlarida uning ko'chmas mulklari mavjudligi to'g'risida ma'lumotlarni, yo'l harakati xavfsizligi idoralarida unga mulk huquqi asosida tegishli avtomobillar mavjud ekanligi to'g'risida ma'lumotlarni to'plashga, shuningdek, uning turar joylarini ko'zdan kechirib, ulardagi qimmatbaho buyumlar, inventarlar va shu kabi moddiy ashyolar mavjudligini aniqlashga harakat qiladilar [4, 162-bet].

Qarzdor – intellektual mulk egasi (yozuvchi, shoir, ixtirochi, olim) ushbu mol-mulkka nisbatan o'zini boylik sohibi sifatida deyarli his etmaydi. Sudlar va MIB xodimlari ham bunday turdagi boylik borligini unutilganlar yoxud unga nisbatan e'tiborsizlik qiladilar. Va nihoyat, sud hujjatlarini ijro etish orqali manfaatlari qanoatlantirilishi lozim bo'lgan undiruvchilar ham bunday boylikdan bexabar yoxud xabardor bo'lgan taqdirda ham unga nisbatan o'ta ishonchsiz munosabatda bo'lalilar va hatto olishdan voz kechadilar.

Odatda, mol-mulkni garovga olishda yoxud unga nisbatan undiruvni qaratishda uning likvidligi, ya'ni xaridorgirligiga alohida e'tibor berishadi. Likvid mol-mulk haqiqatdan ham xaridorgir hisoblanadi, ya'ni tijorat muomalasida unga nisbatan talab va takliflar mavjud bo'lib, uni sotib olgan odam kuyib qolmaydi, qiymati pasaymaydi va aksincha, oshib boradi.

Huquqiy maydonda harakat qiluvchi subyektlar intellektual mulk obyektlariga nisbatan, intellektual mulkka nisbatan haqiqiy boylik sifatida qarash to'la qonli ravishda shakllanmagan ekan, u holda qonun bunday obyektlarga nisbatan qanday rejim belgilashi mumkin? Shuni e'tirof etish lozimki, Fuqarolik kodeksi ham, intellektual mulkning alohida obyektlariga nisbatan huquqiy rejimini belgilovchi alohida qonunlar ham intellektual mulkka nisbatan boylik va alohida aktiv sifatida qaraydi. Undiruvni qarzdorga tegishli bo'lgan alohida mulkiy huquqlarga qaratish bo'yicha huquqiy normalar esa nihoyatda umumiy xarakterga ega.

Bu o'rinda birinchi navbatda e'tibor qaratish lozim bo'lgan masala intellektual mulk obyektining huquqiy rejimi hisoblanadi. Mazkur huquqiy rejim davlatni vakolatli organi tomonidan muhofaza yorlig'i bilan rasmiylashtirilgan (masalan, patentlangan ixtirolar) yoxud yaratilish fakti asosida huquqiy muhofaza beriladigan obyektlar (masalan, badiiy asarlar) yoxud uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli tijorat siri hisoblangan axborotlar (masalan, tijorat sirlari) bo'lishi mumkin. Patentlar va litsenziya shartnomalari bilan himoyalangan huquqlarni izlab topish va ularga nisbatan ijroni qaratish nisbatan oson hisoblanadi. Mualliflik huquqining obyekt bo'lgan qo'lyozmalar, turli moybo'yoq rasmlari originallari, hajmli fazoviy asarlar, jumladan, haykaltaroshlik namunalarini ham tijorat muomalasida bo'lishi aniq vaziyatlar orqali namoyon bo'lishi sababli va ularni moddiy ashyoviy eltuvchilarida ifodalanishi undiruv jarayonining nisbatan oddiy kechishini ta'minlaydi.

Biroq ko'p hollarda tijorat muomalasida harakatda bo'lganda izi qolmaydigan obyektlar, nou-xaularga nisbatan undiruvni qaratishda jiddiy muammolar va murakkab vaziyatlar vujudga kelishi mumkin.

Mol-mulkiga nisbatan ijro qaratilayotgan subyektlarning huquqiy maqomi ham undiruv jarayonida o'ziga xos ta'sir qiladi. Tijorat yuridik shaxslari o'z faoliyatlarida majburiy ravishda moliya-buxgalteriya hujjatlarini yuritadilar, bunda kirim-chiqim, balans hujjatlarini doimiy ravishda qayd etib boriladi. Shu sababli ham ularning mol-mulklari va nomoddiy aktivlariga nisbatan undiruvni qaratishda deyarli muammolar vujudga kelmaydi (agarda hamma turdagi aktivlar tegishli ravishda rasmiylashtirilgan bo'lsa). Biroq oddiy fuqaro o'z mol-mulki, aktivlari bo'yicha doimiy ravishda qayd etib boriladigan buxgalteriya hujjatlarini yuritmaydi. Ayniqsa,

mualliflik va turdosh huquqlarga taalluqli obyektlar bilan bog'liq o'z huquqlarini hattoki o'zi ham har doim yodda tutavermaydi. Aynan shu sababli undiruv ijro jarayonida qarzidor o'z manfaatlari nuqtai-nazaridan faollik ko'rsatmasligi tabiiy.

O.Okyulovning fikricha, intellektual mulk obyektlarini baholash va tijorat muomalasida bo'lish jarayonini huquqiy maydonda amal qilishi ta'minlanishi lozim. Bunda sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish, ya'ni undiruvni intellektual mulk obyektlariga qaratishning metodologiyasi va huquqiy mexanizmi shakllantirilishi lozim. Bunday metodologiya quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Qarzdorga tegishli bo'lgan intellektual mulk obyektlari va ularga nisbatan huquqlarni aniqlash;
2. Bunday obyektlarga nisbatan huquqlar rasmiylashtirilmagan bo'lsa ularni rasmiylashtirish, legallashtirish choralari ko'rish (masalan, meros bo'lib o'tganda);
3. Ushbu obyektlarga nisbatan undiruv jarayonida ijroni qaratish navbatini belgilash;
4. Undiruv qaratilayotgan intellektual mulk obyektlariga nisbatan ijroni qaratish usulini belgilash;
5. Bunday obyektlarga nisbatan qiziqish bildirish mumkin bo'lgan xaridorlar guruhini aniqlash va ularni bu haqida xabardor qilish;
6. Undiruv qaratilayotgan obyektlardan legal yoki nolegal foydalanuvchilar doirasini aniqlash, ular qilgan daromadlarning hajmini belgilash;
7. Undiruv qaratilishi lozim bo'lgan intellektual mulk obyektlarini baholash yoxud boshlang'ich baholarini belgilash;
8. Ushbu intellektual mulk obyektlariga undiruvni qaratish uchun auksionlarda, tenderlarda, kim-oshdi savdolarida qo'yish;
9. Tenderlar, auksionlar g'oliblari bo'lgan shaxslar bilan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni ularga o'tkazish, bir martalik yoki davriy to'lovlar bo'yicha bayonnomalar, grafiklar tuzish va tegishli shaklda rasmiylashtirish;
10. Undiruvga qaratilgan mablag'lar hisobidan kreditorlar talabini qanoatlantirish.

Albatta, bu metodologiya juda muhim ahamiyatga ega. Olim aytib o'tganidek, u MIB xodimlari uchun o'ziga xos amaliy qo'llanma vazifasini bajarishi mumkin. Negaki, jismoniy yoki yuridik shaxsning to'lovga qobiliyatsizligi sharoitida har doim ham ushbu shaxslarning intellektual mulkka egaliklari tugatish massasi hisobiga olinavermaydi. Shu sababli, bizning fikrimizcha, undiruvning huquqiy asoslarini takomillashtirmasdan turib, ushbu metodologiya haqiqiy amaliy qo'llanmaga aylanishiga erishish qiyin hisoblanadi.

**Natijalar.** Umuman olganda bankrotlik yoki ijro ishi yuritish doirasida barcha intellektual mulk obyektlarini uch guruhga bo'lish mumkin:

1. *Qonunning bevosita ko'rsatmalariga ko'ra undiruv qaratilishi mumkin bo'lmagan intellektual mulk obyektlari.* Bular, eng avvalo, muallifning va boshqa huquq egalari shaxsiy nomulkiy huquqlari (masalan, mualliflik huquqi, mualliflik huquqi asarni nashr etish)dir. Negaki O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1033-moddasida shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar tegishli bo'lishi va uning intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tgan taqdirda uning o'zida saqlanib qolishi belgilangan. Shuningdek, mualliflik huquqi (intellektual faoliyat natijasining

muallifi deb e'tirof etilish huquqi) shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnati bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi.

A.V.Kopyev, A.M.Chumakovalarning ta'kidlashicha, qarzni to'lash uchun muallifni o'z asarlarini nashr etishga majburlab bo'lmaydi [5].

Shu bilan birga, asarga bo'lgan mutlaq huquqni begonalashtirish to'g'risidagi shartnomalar va litsenziya shartnomalari bo'yicha muallifning boshqa shaxslarga nisbatan da'vo huquqlarini, shuningdek asardan foydalanishdan olingan daromadlariga nisbatan undiruv qaratilishi mumkin.

## *2. Undiruv qaratilishi imkoniyati yuqoriroq bo'lgan intellektual mulk obyektlari*

Ushbu guruhga qonunchilikda belgilangan tartibda vakolatli organlarda ro'yxatdan o'tgan, mutlaq huquqlar patent (ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, seleksiya yutug'i) yoki guvohnoma (savdo belgisi, EHM dasturi, agar mutlaq huquqlar muallifga tegishli bo'lmasa) kabi tegishli huquq (himoya) hujjatlari bilan tasdiqlangan obyektlarni o'z ichiga oladi.

Bunda qarzdorning intellektual faoliyat natijalariga va individuallashtirish vositalariga mutlaq mulkiy huquqlari mavjudligi yoki yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishli davlat reyestridan olish mumkin bo'ladi. Mazkur reyestr bugungi kunda elektronlashtirilganligidan kelib chiqib, bizningcha, uni "MIB Portal" elektron dasturiy tizimi bilan integratsiya qilish imkoniyati mavjud.

## *3. Undiruv qaratilishi bevosita qonun bilan taqiqlanmagan, biroq undiruv tartibi va huquqni tasdiqlovchi hujjatlarning aniq huquqiy tartibga solinmaganligi sababli undiruvni amalga oshirish nihoyatda qiyin bo'lgan obyektlar*

Ushbu obyektlarga misol sifatida ishlab chiqarish siri (nou-xau), integral mikrosxemalar topologiyasi, ro'yxatdan o'tmagan EHM dasturlari kiradi. Bunda asar muallifga tegishli bo'lmagan asar sifatida dasturga bo'lgan mutlaq huquq himoyalani.

Amalda, qarzdorning yuqorida ko'rsatilgan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquqlari to'g'risida ma'lumot olish juda qiyin, chunki ular faqat qarzdor ishtirok etgan hujjatlar va shartnomalarda mavjud bo'lib, ochiq reyestrda qayd etilmaydi.

Tijorat siriga kelsak, ushbu intellektual mulk obyektiga undiruvni qaratish o'zining huquqiy tabiatiga ko'ra ancha muammoli ko'rinadi. Ishlab chiqarish siri uchinchi shaxslarga ma'lum emasligi va tijorat siri sifatida tasniflanganligi sababli qonun hamda shartnoma taraflari tomonidan himoya qilinadi. Tijorat sirining muhofaza qilinishini ta'minlash maqsadida mehnat shartnomasi (kontrakt) yoki fuqarolik-huquqiy shartnomada mehnat shartnomasi (kontrakt) yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma bekor qilingandan keyin sobiq xodim tijorat sirini oshkor etmasligi shart bo'lgan muddat, tijorat siri shartnoma predmeti bo'lgan shartnomalarning barchasida maxfiylik qoidalarining bo'lishi qonunning to'g'ridan-to'g'ri talabi hisoblanadi. Tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar ommaga ochiq (ma'lum) bo'lgan paytdan boshlab nou-xauga bo'lgan mutlaq huquq barcha huquq egalari uchun to'xtatiladi. Shu sababdan kim oshdi savdosi vaqtida ishlab chiqarish sirini o'z ichiga olgan lot qanday shakllantirilishi va qanday tavsiflanishi noaniqdir.

To'liq hajmda ishlab chiqarish siriga bo'lgan mutlaq huquq lotning predmeti bo'lishi mumkin, biroq bunda ishlab chiqarish siri to'liq oshkor etilishi yoki allaqachon oshkor etilgan bo'lishi kerak. Chunki ishlab chiqarish sirining alohida tarkibiy qismlarini berish qonunchilikda nazarda tutilmagan va bu imkonsiz ham. Shunga ko'ra undiruvning tijorat sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarga qaratilishi ularning maxfiyligi yo'qolishi va buning natijasida maxfiylik

xususiyatlariga ega bo'lgan mutlaq huquq qonun kuchi bilan tugatiladigan vaziyat yuzaga kelishi mumkin.

Umuman olganda, firma nomi, patentlar va tovar belgilari kabi intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquqlarga undiruvni qaratish to'lovga qobiliyatsizligi sababli korxonalarni mulkiy majmua sifatida sotishda maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida" Qonuni (12.04.2022-yildagi O'RQ-763-son) 126-moddasida qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish haqida so'z boradi. Moddaning 1-qismiga muvofiq kreditorlarning talablarini qanoatlantirish maqsadida tashqi boshqaruv rejasida qarzdorning korxonasini (biznesini) mulkiy majmua sifatida sotish nazarda tutilishi mumkin.

2-qismga muvofiq korxona (biznes) mulkiy majmua sifatida sotilayotganida qarzdorning tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga mo'ljallangan barcha turdagi mol-mulki, shu jumladan yer uchastkalari, binolari, inshootlari, uskunalari, inventari, xom ashyosi, mahsuloti, talab qilish huquqlari, shuningdek qarzdorning **xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalari (firma nomi, tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari)**, uning tovarlari, ishlari va xizmatlari, qarzdorga tegishli bo'lgan boshqa mutlaq huquqlar o'zga shaxslarga o'tkaziladi, **bundan boshqa shaxslarga topshirilishi mumkin bo'lmagan huquq va majburiyatlar mustasno [6].**

Ushbu holatda korxonani sotishda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun mo'ljallangan barcha turdagi mulk va mulkiy huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk obyektlari ham begonalashtiriladi. Biz yuqorida to'xtalib o'tgan amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq boshqa shaxslarga berilishi mumkin bo'lmagan mutlaq huquqlar bundan mustasno hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda undiruvni intellektual mulk obyektlariga qaratish bo'yicha quyidagicha xulosalarni bildirish mumkin:

Fuqarolik qonunchiligiga muvofiq intellektual mulk obyektlariga bo'lgan shaxsiy nomulkiy huquqlarga undiruv qaratilishi mumkin emas. Bunga ularning huquqiy tabiati yo'l qo'ymaydi. Undiruv faqat ushbu obyektlarga nisbatan mutlaq (mulkiy) huquqlargagina qaratilishi mumkin;

Intellektual mulkka undiruvni qaratishning asosiy muammosi, bizning fikrimizcha, bunday tartibning qonunchilik hujjatlarida aniq tartibga solinmaganligi bo'lib, bu undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan salohiyatli mulk sifatida bevosita huquqni qo'llovchilar – davlat ijrochilari ish faoliyatida ommabop emas. Shuningdek, intellektual mulk likvidlilik darajasi pasaygan yoki umuman yo'qolgan taqdirda da'vogarning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zarar yetkazilishi xavfi nuqtai nazaridan ham undiruv obyekti sifatida katta qiziqish uyg'otmaydi;

Undiruvni intellektual mulk obyektlariga qaratish to'g'risida qaror qabul qilishda davlat ijrochisi ularga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarni topishi zarur bo'ladi. Aynan ularga ko'ra qarzdor intellektual mulk obyektiga nisbatan huquq egasi, uning qonuniy mulkdori ekanligi, intellektual mulk haqiqatda himoyalanganligi to'g'risida yagona to'g'ri xulosa chiqarish, shuningdek undiruv qaratilishi rejalashtirilgan intellektual faoliyat natijasining qiymatini belgilash mumkin. Shu bilan birga, yaratilish faktining o'zi intellektual faoliyat

natijasi o'sha shaxsga tegishli deb topilishi mumkin bo'lgan holatlarda (masalan, shoirning she'ri) ushbu faktni aniqlash muayyan qiyinchiliklarni tug'diradi;

Intellectual mulk obyektlariga bo'lgan mutlaq huquq aksariyat hollarda muddatli bo'lib, himoya muddati kam qolgan obyektlarga undiruvni qaratish ijro dan ko'zlangan maqsadga erishilishiga to'sqinlik qilishi mumkin;

Undiruvni intellectual mulk obyektlariga qaratish O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byuro si davlat ijrochilari tomonidan sud qarorlariga muvofiq amalga oshiriladi;

Undiruvni intellectual mulk obyektlariga qaratishning normativ-huquqiy asoslarini takomillashtirish yuzasidan qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan bir qancha ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbekiston Fuqarolik kodeksidan farqli o'laroq MDH a'zo davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasining Fuqarolik kodeksi tadqiqotimiz uchun foydali bo'lgan bir qator normalarni o'z ichiga oladi. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining to'rtinchi qismida undiruvni intellectual mulk obyektlariga qaratish bo'yicha normalar o'z ifodasini topgan.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodeksining 1241-moddasida qonun hujjatlarida belgilangan asoslarga ko'ra intellectual faoliyat natijasiga yoki individuallashtirish vositasiga bo'lgan mutlaq huquqni boshqa shaxsga o'tkazishga mualliflik huquqi egasi bilan shartnoma tuzmasdan ruxsat beriladi. Bunday asoslar sirasiga undiruvni huquq egasi (muallif)ning mulkiy huquqlariga qaratish ham kiradi[7].

Shuningdek, RF FK 1284-moddasida undiruvni asarga bo'lgan mutlaq huquqqa va asardan litsenziya asosida foydalanish huquqiga qaratish tartibi belgilangan bo'lib, unga ko'ra muallifga tegishli asarga bo'lgan mutlaq huquqqa undiruvni qaratishga yo'l qo'yilmaydi. Biroq muallif tomonidan garov shartnomasi tuzilgan bo'lsa-yu, uning predmeti muallifga tegishli muayyan asarga mutlaq huquq bo'lgan hollar bundan mustasnodir. Shuningdek undiruv muallifning asarga bo'lgan mutlaq huquqini begonalashtirish to'g'risidagi shartnomalar va litsenziya shartnomalari bo'yicha boshqa shaxslarga nisbatan da'vo huquqlari, shuningdek asardan foydalanishdan olingan daromadlariga ham qaratilishi mumkin.

Bundan tashqari muallifning o'ziga emas, balki boshqa shaxsga tegishli bo'lgan mutlaq huquq bo'yicha litsenziatga tegishli bo'lgan asardan foydalanish huquqiga ham undiruv qaratilishi mumkin.

Ta'kidlab o'tilgan normalar muallifning merosxo'rlariga, ularning merosxo'rlariga va boshqalarga nisbatan mutlaq huquqning amal qilish muddati davomida qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan.

Moddaning ikkinchi qismiga ko'ra litsenziatga tegishli asardan foydalanish huquqiga nisbatan undiruv qaratilib, ochiq savdoga (shu jumladan, kim oshdi savdosiga ham) chiqarilsa, muallifga ushbu huquqni sotib olishda imtiyozli huquq beriladi.

RF FK 1319-moddasida undiruvni ijro ga bo'lgan mutlaq huquqqa va litsenziya bo'yicha ijro dan foydalanish huquqiga qaratish tartibi haqida so'z boradi. Bunda ham yuqoridagi moddada keltirilgan qoidalarga o'xshash qoidalar o'rnatilgan.

Ushbu cheklovlarning mavjudligi an'anaviy ravishda intellectual mulk huquqida huquqiy munosabatlarning "zaif" tomoni sifatida ko'riladigan subyektlar – muallif (huquq egalari) uchun qo'shimcha kafolat sifatida ko'riladi. Muallifning (ijro chining) o'zi o'z asariga (spektakliga) bo'lgan mutlaq huquqini garovga qo'yish to'g'risida qaror qabul qilgan

taqdirdagina va bunday qarorning ushbu huquqni begonalashtirish shaklida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini bilgan taqdirdagina, ushbu huquqlarga nisbatan undiruv qaratilishi mumkin.

RF FKning 1405-moddasi 6-qismi undiruv maxfiy ixtiroga bo'lgan mutlaq huquqqa qaratilishi mumkin emasligini belgilaydi.

Bundan tashqari, RF FK garovga qo'yish va buning oqibatida nafaqat mutlaq huquqning o'zini, balki mutlaq huquqni begonalashtirish to'g'risidagi shartnoma va litsenziya (sublitsenziya) shartnoma bo'yicha huquqlarga ham undiruvni qaratish imkoniyatini nazarda tutadi. Mazkur holatda litsenziya shartnomasi bo'yicha huquqlarga undiruvni qaratishda litsenziarning roziligi talab qilinmasligi va bu qoida qonun hujjatlarida belgilangan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, adabiyotlarda intellektual faoliyat natijalariga bo'lgan nomutlaq huquqlarga ham undiruvni qaratish imkoniyati ham muhokama qilingan. Misol sifatida, patent olish huquqiga undiruvni qaratish haqida gap ketgan.

Shu bilan birga, ekspertlar intellektual faoliyatning boshqa natijalariga va shunga o'xshash individuallashtirish vositalariga bo'lgan mutlaq huquqqa undiruvni qaratishning o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutmagan Rossiya qonun chiqaruvchisining nomuvofiqligini ta'kidlaydilar.

Garchi shunday bo'lsa-da, ushbu qonunchilik tajribasidan undiruvni intellektual mulk obyektlariga qaratishning fundamental huquqiy asoslarini belgilashda foydalanish mumkin. Keltirib o'tilgan normalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida o'z o'rnini topishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida" Qonunga ham intellektual mulk obyektlariga undiruvni qaratish yuzasidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish istiqbollari ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda mazkur qonunga undiruvni qarzdorga tegishli bo'lgan intellektual mulk obyektlari va individuallashtirish vositalariga bo'lgan mulkiy huquqlarga qaratish tartibiga doir normalar kiritilishi kerak. Mazkur toifadagi obyektlarga nisbatan majburlov choralari sifatida intellektual faoliyat natijasi va individuallashtirish vositalariga bo'lgan mutlaq huquqni begonalashtirish yoki undan foydalanish to'g'risidagi shartnomalar bo'yicha da'vo huquqlari, litsenziat sifatida qarzdorga tegishli bo'lgan intellektual faoliyat natijasi yoki individuallashtirish vositasidan foydalanish huquqiga undiruvning qaratilishi haqidagi normalarni kiritish maqsadga muvofiq.

Qonunda qarzdor davlat ijrochisining talabiga binoan o'zining mulkka bo'lgan huquqlari, shu jumladan, intellektual faoliyat natijalariga va individuallashtirish vositalariga bo'lgan mutlaq va boshqa huquqlari, ushbu huquqlarni begonalashtirish yoki ulardan foydalanish to'g'risida shartnomalar bo'yicha da'vo huquqlari to'g'risida ma'lumot berishga majbur ekanligi mustahkamlab qo'yilishi kerak. Shu bilan undiruv ijro etilishi jarayonida qarzdor nafaolligini majburiy faollikka aylantirish mumkin bo'ladi.

Qonunchilikka kiritilishi taklif etilayotgan mazkur o'zgartirish va qo'shimchalar undiruvni intellektual mulk obyektlariga bo'lgan mulkiy huquqlarga qaratish yuzasidan metodologiya ishlab chiqilishi va huquq normalarining amalda o'z ifodasini topishiga xizmat qilmasdan qolmaydi.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.11.2024-y., 03/24/995/0908-son // URL: <https://lex.uz/docs/-111189>
2. O'zbekiston Respublikasining "Garov to'g'risida"gi qonuni (yangi tahriri, 01.05.1998 yildagi 614-I-son). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 23.10.2024-y., 03/24/980/0840-son // URL: <https://lex.uz/docs/-59914>
3. O'zbekiston Respublikasining "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonuni (29.08.2001 yildagi 258-II-son). Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024-y., 03/24/974/0804-son // URL: <https://lex.uz/docs/-59914>
4. О.Окюлов. Ундирувни интеллектуал мулк объектларига қаратиш жараёнини ҳуқуқий асосларини ва методологиясини такомиллаштириш масалалари. "Инновация ва интеллектуал мулк соҳасидаги халқаро стандартларни Ўзбекистонда қўллаш муаммолари: интеллектуал мулк объектлари тижоратлаштириш ва баҳолаш" мавзусидаги Халқаро илмий-амалий конференция материаллари тўплами (2020 йил 29 сентябрь) – Т.: ҲСТИ, Электрон нашр, 2020 й. – 162-бет
5. Чумакова А.М. Обращение взыскания на объекты интеллектуальной собственности как имущества должника. Теория права и межгосударственных отношений, Том: 2, Номер: 8 (20), Год: 2021. Стр. 292
6. O'zbekiston Respublikasining "To'lovga qobiliyatsizlik to'g'risida" Qonuni (12.04.2022-yildagi O'RQ-763-son) Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 10.10.2024-y., 03/24/974/0804-son // URL: <https://lex.uz/docs/-5957612>
7. Гражданский кодекс Российской Федерации часть 4 (ГК РФ ч.4), 18 декабря 2006 года N 230-ФЗ // URL: <https://www.consultant.ru/document/cons doc LAW 64629/>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 12 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari**” elektron jurnali  
2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli  
guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.  
**Muassis:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
mas'uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**  
100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
**Bog'lanish uchun telefonlar:**  
(99) 602-09-84 (telegram).